


QURILISH ISHLARI

2019- yil (yanvar-noyabr)

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 4 277,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmi

(ulushi, mlrd.so'm)




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 620,2 mlrd. so`mni tashkil etdi. O`tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 6,4 % ga ko`p ishlar bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkich darajasidan 0,7 punktga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,2 %i to`g`ri kelib, o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 5,2 punktga ko`paydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 121,5 % ni tashkil qilgan holda 2 702,3 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- **o'sish sur'ati -**
106,4 %


- **ulushi -**



Kichik korxona va mikrofirmalar

- **o'sish sur'ati -**
121,5 %


- **ulushi -**



Norasmiy sektor

- **o'sish sur'ati -**
95,9 %


- **ulushi -**




Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,5 punktga kamayib, 22,3 % ni tashkil etdi va 954,8 mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 95,9 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 224,9 mlrd. so`m yoki 2018 yilning yanvar-noyabriga nisbatan 152,2 % qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 4052,4 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, o'sish sura'ti 140,9 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi ulushlari mos ravishda 5,3 % va 94,7 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 72,9 %i yoki 3116,4 mlrd. so`m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan 230,4 mlrd. so`m ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 196,6 % tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 1997,6 mlrd. so`m yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 182,8 % yangi qurilish ishlari bo`yicha ishlar bajarildi.

Norasmiy sektor hissasiga 888,4 mlrd. so`m yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 95,9 % yangi qurilish bo`yicha ishlar bajarildi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari


(2019 yil yanvar-noyabr)

(mild. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'tgan yilga nisbatan, foizda	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta quollantirish
Qashqadaryo viloyati	4277,3	112,3	3116,4
shaharlar:			
Qarshi	1247,0	123,6	913,1
Shahrisabz	236,4	115,3	180,8
tumanlar:			
G'uzor	156,8	100,6	105,9
Dehqonobod	127,1	104,7	90,4
Qamashi	120,2	99,4	71,7
Qarshi	387,0	106,2	314,8
Koson	457,4	108,9	305,4
Kitob	302,8	117,1	230,6
Mirishkor	117,6	105,3	71,7
Muborak	206,6	102,5	149,6
Nishon	102,9	103,4	68,6
Kasbi	148,2	106,2	102,8
Chiroqchi	309,9	114,9	227,5
Shahrisabz	116,4	108,4	105,9
Yakkabog'	241,0	108,2	177,6

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,1 % ni yoki 98,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,2 % punktga ko'payib, 68,2 % ni yoki 2147,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,4 % punktga kamayib, 954,8 mlrd. so'mni yoki 28,7 % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 19,9 % punktga kamaydi va 50,7 % ni tashkil etdi. Qolgan 49,3 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 19,9 % punktga ko`paydi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

(2019 yil yanvar-noyabr)

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		binolar va inshootlar qurilishi	fuqarolik qurilish ob'ektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Qashqadaryo viloyati	4277,3	3174,8	521,3	581,2
shaharlar:				
Qarshi	1247,0	925,5	152,0	169,5
Shahrisabz	236,4	175,5	28,8	32,1
tumanlar:				
G'uzor	156,8	116,4	19,1	21,3
Dehqonobod	127,1	94,3	15,5	17,3
Qamashi	120,2	89,2	14,7	16,3
Qarshi	387,0	287,2	47,2	52,6
Koson	457,4	339,5	55,7	62,2
Kitob	302,8	224,8	36,9	41,1
Mirishkor	117,6	87,3	14,3	16,0
Muborak	206,6	153,4	25,1	28,1
Nishon	102,9	76,4	12,5	14,0
Kasbi	148,2	110	18,1	20,1
Chiroqchi	309,9	230	37,8	42,1
Shahrisabz	116,4	86,4	14,2	15,8
Yakkabog'	241,0	178,9	29,4	32,7

Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'ati

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari

Qarshi shahri (123,6 %):

- Qarshi shahridagi "Makro" gipermarketining qurilishi;
- Bitum ishlab chiqaradigan zavod qurilishi;
- Jismoniy shaxslar tomonidan turar joy va noturar ob'ektlarning qurilishi.

Shahrisabz shahri (115,3 %):

- Qarshi-Kitob temir yo'lini elektrlashtirish (110 kv havo liniyalari) ;
- "Do'stlik" nasos stansiyasining qurilishi;
- "KOIKA" o'quv markazining rekonstruksiya qilinishi;

Kitob tumani (117,1 %):

- Cement ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Qarshi Conch Cement" MCHJ ning qurilishi ;
- Yangiobod massivida arzonlashtirilgan ko'p qavatli turar joylarning qurilishi;

Koson tumani (108,9 %):


- "Koson Neft Gaz Qidiruv Ekspedisiyasi" mas'uliyati cheklangan jamiyatni tomonidan qidiruv burg'ulash ishlarining olib borilishi ;
- Neft va gaz uskunalarini ishlab chiqarish va ta'mirlashga mo'ljallangan sex qurilishi.

Chiroqchi tumani (114,9 %):

- "Ma'danli suv" ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;
- Jismoniy shaxslar tomonidan turar va noturar bino va inshootlarning qurilishi;
- "Grand Brand" gipermarketining qurilishi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Joriy davrda ham jami qurilish ishlaringin katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,2 % ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Qarshi, Shahrisabz tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxona va mikrofirmalarning eng past ulushi esa

Dehqonobod hamda Koson tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 22,3 %i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektoring yuqori ulushi Dehqonobod (58,6 %) hamda G'uzor (53,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **A.Isaev**

Aloqa telefon: **(75) 221-32-47**